



TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI

Ravshanov To'yli Gulmurodovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
katta o'qituvchisi

[doi: https://doi.org/10.55439/ECED/vol25_iss2/a45](https://doi.org/10.55439/ECED/vol25_iss2/a45)

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda davlat dasturlari doirasida turizm sohasiga kiritilayotgan investitsiyalar, yaratilayotgan yangi ish o'rinlari hamda tashkil etilgan mehmonxonalar holati o'rganilgan. Shuningdek, pandemiyadan so'ng oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida turizm sohasidagi loyihalarni amalga oshirish uchun ajratiladigan mablag'lar miqdori tatbiq etilgan.

Kalit so'zlar: "Covid-19" pandemiyasi, turizm, barqaror rivojlanish, investitsiyalar, hudud.

ЗНАЧИМОСТЬ ИНВЕСТИЦИЙ В РАЗВИТИЕ СФЕРЫ ТУРИЗМА

Равшанов Туйли Гулмуродович
Старший преподаватель Ташкентского государственного
экономического университета

Аннотация. В данной статье исследованы инвестиции в сферу туризма, созданные новые рабочие места и состояние созданных гостиниц в нашей стране в рамках государственных программ. Также был применен объем средств, выделенных на реализацию проектов в сфере туризма в рамках программ развития семейного предпринимательства после пандемии.

Ключевые слова: Пандемия «Covid-19», туризм, устойчивое развитие, инвестиции, территория.

THE IMPORTANCE OF INVESTMENTS IN THE DEVELOPMENT OF SPHERE OF TOURISM

Ravshanov Tuyli Gulmurodovich
Senior teacher of Tashkent state university of economics

Abstract. In this article, investments in the field of tourism, new jobs created and the status of established hotels in our country was studied within the framework of state programs. Also, the amount of funds allocated for the implementation of projects in the field of tourism within the framework of family entrepreneurship development programs after the pandemic was applied.

Key words: "Covid-19" pandemic, tourism, sustainable development, investments, territory.

Kirish. "Covid-19" pandemiyasidan so'ng dunyo miqyosida turizm sohasiga investitsiyalarni kiritish borasida jadal o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda va ushbu tendensiyalar mintaqaviy rivojlanish iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu sohada ham investitsiyalarning kiritilishi va yangi ish o'rinlarining tashkil etilishi umumiy iqtisodiy farovonligini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Bunday sharoitda turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlarga investitsiyalarni kiritish strategik hamda barqaror rivojlanishning muhim omili hisoblaniladi.

So'nggi yillarda turizm sohasida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash va ularga moliyaviy ko'maklar berish ishlari davom etmoqda. Yildan yilga mamlakatimizda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Kichik hamda o'rta biznesni rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlari uchun yer maydonlari, bino hamda inshootlarning samarali foydalanish uchun ishonchli boshqaruvga berilayotganligi hamda yangi joylashtirish vositalari tashkil qilgan investorlar va tadbirkorlarga davlat tomonidan subsidiyalar hamda imtiyozli kreditlar ajratilayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Adabiyotlar sharhi. Sh.Abdurazzakova (2022) fikricha, O'zbekiston Respublikasi bugungi kunda yirik xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakatlar qatoriga kiritish uchun barcha iqtisodiy, siyosiy va huquqiy asoslarga ega bo'lgan investitsion muhitga ega, lekin bu O'zbekistonda xorijiy investorlarni jalb qilish uchun barcha ishlar amalga oshirilganligi to'g'risida ma'lumot bermaydi. Shundan kelib chiqqan holda, investitsiyalar jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish,

undan samarali foydalanish, yo'nalishlari va taqsimlanishini to'g'ri tashkil etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozim.

Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilish bilan har tomonlama yuqori natijalarga erishish mumkinligini bugungi kunda ko'plab rivojlangan va mukammal menejment tizimiga ega davlatlar misolida ham ko'rish mumkin. Har qanday investor, eng avvalo, mablag' kiritilishi ko'zda tutilayotgan obyektning har tomonlama to'g'ri baholan-ganligiga e'tibor beradi. Bu esa moliyaviy loyiha-niing iqtisodiy tavakkalchilik parametrlarining qanchalik maksimal darajaga yaqin, to'g'ri va xolisona ko'rsatilganligi bilan ajralib turadi (F.Abdullayev va Q.Xamrayev, 2016).

Iqtisodiyotda turizm industriyasini rivojlantirishning investitsion imkoniyatlarini yanada kengaytirish, respublikamiz turizm industriyasini 2025-yilgacha rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish yo'nalishlarining ustuvor vazifalarini belgilash, bunga raqamli texnologiyalarni jalb qilish va investitsiyalar asosida uni takomillash-tirishga oid aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan (J.Isakov va O.Yo'ldoshov, 2022).

Yana bir olim G.N.Kutepova (2018) bergan ta'rifga ko'ra, "Turizm industriyasi murakkab dinamik tizim bo'lib, unda turoperatorlar va tur-agentlardan tashqari iste'molchiga xizmat ko'rsatuvchi va shu bilan turizmni maxsus iqtisodiy hodisa sifatida imkon yaratadigan ko'plab korxonalar mavjud". Bu tizim markazida u professional turizm ta'limini ko'rgan holda, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirishni turizm sohasida yangi yo'nalishlarni kashf etish va rivojlantirishda bosh omil sifatida baholaydi.

Turizm industriyasi iqtisodiyotning yirik mustaqil majmuasi bo'lib, uning tarmoqlari va korxonalari guruhidan iborat bo'lib, ularning funksiyalari bo'sh vaqtlarda ko'ngil ochish va dam olishning har xil turlariga bo'lgan tobora murakkablashgan va turli-tuman talabni qondirishga asoslanadi (M.A.Morozov va G.A.Karpova, 2014).

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishini bajarishda kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, taqqoslash, mahalliy va xorijiy olimlarning investitsiya faoliyatidagi iqtisodiy qarashlari, sohadagi muammolar va ularning yechimlari bo'yicha izlanishlari hamda sohaga doir qonuniy va me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-238-sonli qarori qabul qilingan.

Ushbu qarorga asosan mamlakatimizga say-yohlar oqimini oshirish va turoperatorlarga (tur-agentlar) davlat tomonidan qo'shimcha ko'maklar ko'rsatish maqsadida quyidagi imtiyoz va prefe-rensiyalarni berish nazarda tutilgan.

- turoperatorlar tomonidan turistik oqim past bo'lgan xorijiy mamlakatlardan O'zbekiston Respublikasiga olib kelingan har bir turist uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan teng ulushlarda 20 AQSh dollaridan 100 AQSh dollarigacha bo'lgan ekvivalentda rag'batlantiruvchi subsidiyalar ajratish;

- turoperatorlar va aviatashuvchilarning xorijiy mamlakatlardan Samarqand, Buxoro va Urganch xalqaro aeroportlariga amalga oshirilgan charter aviaqatnovlari bo'yicha xarajatlarining bir qismi har bir xorijiy turist uchun, u respublika hududida kamida besh kecha tunab qolgan taq-dirda, 20 AQSh dollari, qish mavsumida 50 AQSh dollari ekvivalentida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan teng ulushlar-da qoplab berish;

- yulduzli toifa uchun 60 ta xonadan kam bo'lmagan, 4 va 5 yulduzli toifa uchun 120 ta xonadan kam bo'lmagan xonalar fondiga ega besh qavatdan past bo'lmagan mehmonxona 2026-yil 31-dekabr-ga qadar foydalanishga topshirilgan taqdirda, mehmonxona toifasi tasdiqlangach, investorlarning yangi mehmonxonani qurish (rekonstruksiya qilish bundan mustasno) va jihozlash uchun ketgan xarajatlarining bir qismini O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan quyidagi miqdordalarda qoplab berish tizimini joriy qilish. Bunda:

- 3 yulduzli toifaga ega mehmonxonalar-dagi har bir xona uchun 40 million so'm;

- 4 va 5 yulduzli toifaga ega mehmon-xonalardagi har bir xona uchun 65 million so'm;

- 2026-yil 31-dekabr-ga qadar dunyoning taniqli va nufuzli mehmonxona brendlaridan (mehmonxona brendlarining top-50 va mehmon-xona tarmoqlarining top-5 reytingiga kirgan) foydalanuvchi O'zbekiston Respublikasi rezident-lari bo'lgan tashkilotlarning royalti xarajatlari franchayzing to'g'risidagi shartnoma kuchga kir-gan vaqtdan boshlab uch yil mobaynida O'zbe-kiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan quyidagi miqdorda qisman moliyalash-tirilsin:

- 3 yulduzli toifaga ega mehmonxona uchun - mehmonxonaning har bitta xonasi uchun yillik 200 AQSh dollari ekvivalentida;

- 4 yulduzli toifaga ega mehmonxona uchun
- mehmonxonaning har bitta xonasi uchun yillik 400 AQSh dollari ekvivalentida;

- 5 yulduzli toifaga ega mehmonxona uchun
- mehmonxonaning har bitta xonasi uchun yillik 600 AQSh dollari ekvivalentida.

Bunda yuqorida nazarda nazarda tutilgan subsidiyalarni qoplab berish uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga har yili 150 milliard so'm yo'naltirilishi belgilab berilgan.

Ushbu moliyaviy ko'maklardan tashqari modulli mehmonxonalar qurish uchun har bir hududdan kamida 15 ta yer uchastkalarining elektron auksion orqali savdolarga chiqarilishi hamda tadbirkorlik subyektlari tomonidan 10 million AQSh dollari miqdoridagi investitsiyalar hisobiga quriladigan mehmonxonalarga muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan yetkazib berilishi ko'rsatilib o'tilgan.

Bundan tashqari ushbu qaror bilan 2026-yil 1-iyulga qadar yetib borish qiyin bo'lgan va chekka joylarda (aholi yashash punktlaridan kamida 10 km yoki qattiq qoplamali avtomobil yo'llaridan 5 km uzoqlikda) alohida avtonom infratuzilmani yaratgan holda kempinglar tashkil etgan va "safari" turizmi xizmatlarini ko'rsatadigan yuridik shaxslarning mazkur faoliyat turi bo'yicha mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i hamda foyda

solig'i stavkalari ushbu soliqlar bo'yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida belgilangan[6].

Turizm va madaniy meros vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda hududiy hokimliklar tomonidan sohada amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari inventarizatsiyasi o'tkazilib, yangi tadbirkorlik subyektlarini jalb qilgan holda 2022-2024-yillarda amalga oshirilishi rejalashtirilgan umumiy qiymati 21,6 trln. so'm bo'lgan 727 ta loyiha ro'yxati shakllantirilgan hamda mazkur loyihalar doirasida yil yakuniga qadar 22 901 ta yangi ish o'rinlari yaratilishi rejalashtirilgan.

Hududiy investitsiya loyihalari hamda tadbirkorlik subyektlarining tashabbuslari bilan umumiy qiymati 10,5 trln. so'm bo'lgan 689 ta loyiha amalga oshirilishi va 17 426 ta yangi ish o'rinlari yaratilishi kutilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda PQ-72-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Investitsiya dasturi"ga muvofiq 2022-2026-yillar mobaynida umumiy markazlashmagan investitsiyalar hisobidan jami 1 680 trln. so'm (2022-yil - 248 trln. so'm, 2023-yil - 285,3 trln. so'm, 2024-yil - 327,9 trln. so'm, 2025-yil - 381,5 trln. so'm, 2026-yil - 438,1 trln. so'm,) bo'lgan mablag'lar o'zlashtirilishi rejalashtirilgan bo'lib, kelgusi besh yilda 70 mlrd. dollar miqdorida xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish nazarda tutilgan.

1-jadval

2022-2024-yillar davomida respublikada tashkil etilishi rejalashtirilgan turistik obyektlar

№	Faoliyat turi	Jami		2022-yil		2023-yil		2024-yil	
		Soni	Qiymati mln. doll.	Soni	Qiymati mln. doll.	Soni	Qiymati mln. doll.	Soni	Qiymati mln. doll.
		78	3017,3	38	1026,0	35	1791,9	5	198,5
1.	Mehmonxonalar	30	951,0	18	421,7	11	469,36	1	60,0
2.	Savdo komplekslari	22	1350,5	8	227,4	12	1003,1	2	120,0
3.	Sog'lomlashtirish komplekslari	12	135,1	5	64,7	7	70,4		
4.	Ko'ngilochar, madaniyat va hunarmandchilik markazlari	9	531,1	6	302,1	3	229,0		
5.	Istirohat bog'lari	3	32,0	1	11,0	1	16,0	1	5,0
6.	Kempinglar	1	4,1			1	4,1		
7.	Turizm xizmatlari	1	13,5					1	13,5

Manba: Turizm qo'mitasi ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlangan.

Yuqorida keltirilgan jadvaldan ham ko'rish mumkinki, mazkur loyihalar doirasida 2022-yil davomida 1 044,6 mln. dollar (I chorakda- 142,9 mln. dollar, II chorakda - 229,6 mln. dollar, III chorakda - 356,7 mln. dollar, IV chorakda - 315,2 mln. dollar) investitsiyalarni o'zlashtirilgan.

2022-yil davomida umumiy qiymati 1 026,9 mln. dollar bo'lgan 38 ta loyihani ishga tushirish natijasida 5 475 ta yangi ish o'rinlarini yaratishga erishilgan.

2022-yilda Davlat investitsiya dasturi, hududiy investitsiya dasturlari doirasida hamda

tadbirkorlik subyektlari tashabbusi bilan turizm sohasida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan umumiy qiymati 22,1 trln. so'm bo'lgan 735 ta loyiha amalga oshirilib, 22 924 ta yangi ish o'rinlari yaratilgan.

Xususan, Samarqand shahrida umumiy qiymati 500,0 mln. dollar bo'lgan (shundan xorijiy investitsiyalar 260,0 mln. dollar, xorijiy kredit liniyasi 240,0 mln. dollar) "Silk Road Touristic center" majmuasi 6 ta 4 yulduzli (Savitsky Plaza, Stars of Ulughbek by Lia Minyoun, Marakanda Park Hotel Alisher Navoiy, Marakanda Park Hotel Sogd, Marakanda Park Hotel Navruz, Marakanda Park Hotel Bekhzod) va 2 ta 5 yulduzli (Samarkand Regency Amir Temur, Silk Road Hotel by Minyoun) mehmonxona majmualari va "Abadiy shahar" turistik markazi ishga tushirilgan.

Shuningdek, Toshkent shahar Olmazor tumanida Yaponiyaning "H.I.S. Hotel Holdings Co" kompaniyasi tomonidan zamonviy milliy uslubdagi birinchi robot xizmat ko'rsatuvchi 271 o'ringa mo'ljallangan "Inspira-S" mehmonxonasi, "Biznes United" MChJ tomonidan Yashnobod tumanida 200 o'ringa mo'ljallangan "Panarams Hotel Tashkent" hamda "Azimut Comfort" MChJ tomonidan Mirobod tumanida 280 o'ringa mo'ljallangan "Kotel Aura", Samarqand viloyatida "Konstantin Itol" MChJ tomonidan 164 o'ringa mo'ljallangan "Konstantin Plaza" zamonaviy mehmonxona majmualari ishga tushirilgan.

Shu bilan birga, tog' turizmini rivojlantirish maqsadida Bo'stonliq tumanida "Green Hills Resort" dam olish maskani faoliyati yo'lga qo'yilgan.

2023-yilda Davlat investitsiya dasturi, hududiy investitsiya dasturlari doirasida hamda tadbirkorlik subyektlari tashabbusi bilan turizm

sohasida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan umumiy qiymati 42,7 trln. so'm bo'lgan 1237 ta loyihaning dastlabki ro'yxati shakllantirilgan hamda mazkur loyihalar doirasida 36 759 ta yangi ish o'rinlari yaratilishi rejalashtirilgan.

2023-yilning o'tgan davri mobaynida investitsiya dasturlari doirasida hamda tadbirkorlik subyektlari tashabbusi bilan turizm sohasida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan umumiy qiymati 308,8 mlrd. so'm bo'lgan 10 ta loyiha amalga oshirilib, 421 ta yangi ish o'rinlari yaratilgan.

Xususan, Buxoro viloyatida "Wide Tent System" MChJ tomonidan 424 o'ringa mo'ljallangan "Wyndham Bukhara" mehmonxonasi, Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida "Livingstone" MChJ tomonidan 120 o'rinli "Livingstone" mehmonxonasi, Jizzax viloyati Zomin tumanida "AAA Company" MChJ tomonidan 100 o'rinli turistik, davolash va sog'lomlashtirish majmuasi ishga tushirilgan.

Shuningdek, 2023-yilda Toshkent shahrida Turkiyaning "Calik Energy" kompaniyasining 200 mln. doll. investitsiyalari hisobiga 267 o'rinli "Intercontinental" brendi ostida 5 yulduzli zamonaviy mehmonxona majmuasi ishga tushirilgan.

Bundan tashqari Toshkent shahridagi "Lumiere" MChJ tomonidan faoliyati yo'lga qo'yilgan 252 o'rinli 4 yulduzli mehmonxona majmuasiga jahon bozorida yetakchi bo'lgan "Accor" mehmonxona brendi jalb etilib, "Mercure Tashkent" mehmonxonasi qayta tashkil etilgan.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-maydagi "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-104-sonli qarori tasdiqlangan.

2-jadval

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida turizm sohasidagi loyihalarni amalga oshirish uchun ajratiladigan mablag'lar

T/r	Hudud nomi	Manzilli dasturga kiritilgan			
		Tadbirkorlik subyektlari soni	Ajratiladigan kredit miqdori (mln. so'm)	O'rinlar soni	Yaratiladigan yangi ish o'rinlari soni
Respublika bo'yicha jami:		2 040	500 000	29 668	6 855
1.	Oilaviy mehmon uylari	1 370	58 319	13 307	2 721
2.	Xostellar	300	231 346	7 972	1 937
3.	O'tov lagerlari majmuasi	103	29 333	2 777	607
4.	Avtokempinglar	56	115 379	1 000	330
5.	Ekouylar majmuasi	120	33 731	2 108	866
6.	Konteyner shaharchalari	51	29 600	1 607	275
7.	Chodirli lagerlar	40	2 292	897	119

Manba: Turizm qo'mitasi ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlangan.

Ushbu qarorga muvofiq, 2022-yil dasturi doirasida ajratilayotgan mablag'larning 500 milliard so'mi taqsimot bo'yicha xizmatlar ko'rsatish sohasidagi loyihalarga, birinchi navbatda, Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan talablarga javob beradigan oilaviy mehmon uylari (50 mln. so'mgacha), xostellar (1 mlrd. so'mgacha), o'tov lagerlari majmuasi (300 mln. so'mgacha), avtokempinglar (3 mlrd. so'mgacha), ekouylar majmuasi (300 mln. so'mgacha), konteyner shaharchalar (600 mln. so'mgacha) va chodirli lagerlar (60 mln. so'mgacha) tashkil etish va ularni ta'mirlash loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilishi belgilangan[7].

Yuqoridagi jadvaldan ham ko'rish mumkin, ushbu dastur doirasida turizm xizmatlarini yanada diversifikatsiya qilish maqsadida oilaviy mehmon uylari, xostel, o'tov lagerlari hamda ekouylar majmualari hamda boshqa turdagi joylashtirish vositalarini tashkil etadigan tadbirkorlik subyektlariga keng miqyosda kam foizli bank kreditlari ajratish nazarda tutilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Turizm va madaniy meros bosh boshqarmalari tomonidan belgilangan yo'nalishlarga kreditlarni <https://oilakredit.uz/> onlayn platformasi orqali rasmiylashtirish ishlari amalga oshirilgan.


Ushbu mablag'lar oilaviy mehmon uylarini jihozlash, xostellarni tashkil etish, tov lagerlari majmuasi va ekouylar majmuasi hamda avtokempinglarni tashkil etish istagini bildirgan tadbirkorlik subyektlariga ajratilishi belgilangan.

Xususan, oilaviy mehmon uylari tashkil etgan 1 370 nafar tadbirkorlik subyektlariga 58,3 mlrd. so'm, xostellar tashkil etgan 300 nafar tadbirkorlik subyektlariga 231,3 mlrd. so'm, 159 nafar o'tov lagerlari majmuasi va avtokempinglar egalari uchun mos ravishda 29,3 hamda 115,4 mlrd. so'm, 120 nafar ekouylar majmuasi egalari uchun 33,7 mlrd. so'm, 51 nafar konteyner shaharchalarini qurish istagini bildirgan tadbirkorlarga 29,6 mlrd. so'm hamda 40 nafar chodir lagerlari barpo etadigan tadbirkorlarga 2,3 mlrd. so'm mablag'lar ajratilishi belgilangan.

Ushbu mablag'larni olish uchun tadbirkorlik subyektlari <https://oilakredit.uz/> platformasiga tegishli ma'lumotlar kredit arizalari masofadan qarz oluvchi tomonidan mustaqil ravishda yoki tegishli mahallaga birlashtirilgan hokim yordamchisining ko'magi bilan kiritilishi hamda kredit olishda talabgorlarga "Agrobank" ATB, AT "Xalq banki" va "Mikrokreditbank" ATB orasidan birini ixtiyoriy tanlab, barcha dasturlar doirasida imtiyozli kredit olish bo'yicha murojaat etish imkoniyati yaratilgan.

Tadbirkorlik subyektlari "Joylashtirish vositalari (turizm)" yo'nalishida imtiyozli kredit olish istagini bildirsalar, <https://oilakredit.uz/> platformasi orqali tegishli ma'lumotlar kiritishlari talab etiladi.

Bu yo'nalishdagi kreditlar "Mikrokreditbank" ATBning respublika hamda hududiy boshqarmalari orqali amalga oshirilmoqda.



1-rasm. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida turizm sohasidagi loyihalarga ajratilgan mablag'lar (mln. so'm)

Manba: Turizm qo'mitasi ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlangan.

Umuman olganda, oilaviy mehmon uylarini tashkil etish hamda mavjudlarini qayta jihozlash borasida respublika miqyosida 688 nafar tadbirkorlik subyektlari 52,9 mlrd. so'mlik imtiyozli kreditlarni olish bo'yicha tegishli arizalarni

<https://oilakredit.uz/> platformasiga kiritgan bo'lsa, hokim yordamchilarining tegishli tavsiyanomalariga asosan 119 nafar tadbirkorlik subyektlariga 6,05 mlrd. so'mlik imtiyozli kreditlar ajratilgan.

Shu bilan birga, 451 nafar tadbirkorlar xostellarni tashkil etish maqsadida 286,2 mlrd. soʻmlik imtiyozli kreditlarni olish boʻyicha tegishli arizalarni <https://oilakredit.uz/> platformasiga kiritgan boʻlsa, hokim yordamchilarining tegishli tavsiyanomalariga asosan 10 nafar tadbirkorlik subyektlariga 1,04 mlrd. soʻmlik imtiyozli kreditlar berilgan.

Ushbu tizimning oʻziga xos tomonlaridan biri – arizalar inson omilisiz, skoring baholash natijalariga koʻra, avtomatlashtirilgan holda, arizachining kredit tarixi, muomalaga layoqatligi, soliq organlari, majburiy ijro byurosi organlari va boshqa toʻlovlardan qarzdorligi tekshiriladi hamda hokim yordamchilari tomonidan arizachining faoliyat turi boʻyicha shart-sharoitlari, imkoniyati hamda yetarli koʻnikmasi mavjudligi oʻrganilib, kredit ajratish uchun tavsiyanoma yoki kredit ajratishni rad etish toʻgʻrisidagi xulosa beriladi.

Shu bilan birga, hujjatlar elektron koʻrinishda shakllantiriladi va imzolanadi. Garov taʼminoti bilan bogʻliq maʼlumotlar qarz oluvchi tomonidan elektron shaklda taqdim etiladi.

Joylashtirish vositalari xizmatlari orasida bugungi kunda eng tez rivojlanayotgani konteynerli mehmonxonalarini tashkil etish hisoblanadi. Ushbu xizmatning oʻziga xosligi ularning bir joydan ikkinchi joyga oson koʻchirish imkonining mavjudligi hamda ularni barpo etish uchun koʻp mablagʻlar sarf etilmasligi hisoblanadi.

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda ham ushbu turdagi joylashtirish vositalariga talabning yuqori

ekanligi sababli ularning soni sezilarli tarzda ortib bormoqda. Ushbu dastur doirasida ham konteyner shaharchalarini barpo etish uchun 39 nafar tadbirkorlik subyektlarining 8,02 mlrd. soʻmlik imtiyozli kreditlarni olish boʻyicha tegishli arizalarni <https://oilakredit.uz/> platformasiga kiritgan boʻlsa, hokim yordamchilarining tegishli tavsiyanomalariga asosan 6 nafar tadbirkorlik subyektlariga 0,43 mlrd. soʻmlik imtiyozli kreditlar ajratilgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Oʻzbekiston hududlarida turizm sohasini rivojlantirish, strategik rejalashtirishni amalga oshirish iqtisodiy oʻsish, barqarorlikni taʼminlash uchun ulkan imkoniyatlarga ega. Bunda tarmoqqa kiritilayotgan toʻgʻridan toʻgʻri investitsiyalarni nazariy hamda ilmiy asoslangan va real amaliyotlardan xabardor boʻlgan holda ishlab chiqish talab etiladi.

Mamlakatimizda turizm sohasini iqtisodiyotning “drayver” tarmogʻiga aylantirish maqsad qilingan ekan, avvalo, tarmoqqa investitsiyalar kiritish hajmini yanada oshirish, bozorni osonlashtirish, malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish, tartibga solishni uygʻunlashtirish va samarali strategik rejalashtirish istiqbollarini belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Umuman, ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi Oʻzbekistonning Markaziy Osiyoda turizm habiga aylanishiga va global iqtisodiy sahna barqaror va dinamik rivojlanishiga xizmat qiladi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Shohista Mahmudbek qizi Abdurazzakova. Oʻzbekiston Respublikasida turizm sohasiga kiritilgan investitsiya jarayonlarini ekonometrik modellashtirish. *Tom 2 № 1 (2022): journal.tsue.uz*
2. Abdullayev F. va Xamrayev Q. (2016) Turizm sohasining barqaror rivojlanish koʻrsatkichlari tizimini yaratishda turli xil yondashuvlar. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy-elektron jurnali. 5-son, sentabr-oktabr, 2016-yil.
3. Isakov J. va Yoʻldoshov O. (2022) Raqamli iqtisodiyotda turizm industriyasini rivojlantirishning investitsion imkoniyatlari. // “Iqtisodiyot va turizm” xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali, 6(8)-son, 2022.
4. Кутенева Г.Н. Анализ рынка вакансий туроператорских и турагентских компаний г. Москвы. *Индустрия туризма: возможности, приоритеты, проблемы и перспективы: сборник научных трудов XI Международной научно-практической конференции. – 5-6 декабря 2018 г. – М.: Московский государственный институт индустрии туризма имени Ю.А.Сенкевича, 2018. С. 80.*
5. Морозов М.А., Морозова Н.С., Карпова Г.А., Хорева Л.В. *Экономика туризма. Учебник. – М.: Федеральное агентство по туризму, 2014. С. 28.*
6. <https://lex.uz/docs/-6549286>
7. <https://lex.uz/docs/-5840284>